

Navoiy viloyat statistika boshqarmasi



2018 yil yanvar oyida Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **1752,5 mlrd.so'mni**, o'sish **2,7 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **-98,2 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **8,9 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **10,9 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'iycha 2018 yilning yanvar oyida viloyatimizda korxonalar tomonidan 1752,5 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,7 % ni tashkil etdi.

Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 64,2 foizni tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarishning oshishiga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalar ham munosib hissa qo'shdi, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 29 foiz, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,4 foizni tashkil etdi.

2018 yil yanvar oyida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi





Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 508,2 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 29,0 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2018 yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1125,9 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 64,2 % ni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 111,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,4 % ni) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ni) tashkil etdi.




Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 155,7 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar oyiga nisbatan 98,2 %, jami sanoatdagi ulushi esa 8,9 % ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari




Yanvar oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da



Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Navoiy viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Navoiy shahri (viloytda sanoat ishlab chiqarish hajmning 83,6 % ulushini), Karmana (7,9 %), Qiziltepa (2,5 %), Xatirchi (2,1 %), Navbahor (1,7 %), tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2018 yilning yanvar oyida hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




Shu bilan birga eng kam ulush Zarafshon shahri (0,8 %), Nurota (0,7 %), Uchquduq (0,3 %), Konimex (0,2 %) va Tomdi (0,1 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Zarafshon shahri (2017 yilning yanvar oyiga nisbatan 119,5 % ga), Navbahor (117,8 % ga), Karmana (112,3 % ga), Qiziltepa (112,1 % ga), Xatirchi (110,0 % ga) tumanlarida sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.

2018 yilning yanvar oyida shahar va tumanlarda sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari


(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.

Bugungi kunda viloyatimizda 1549 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 506 tasi Navoiy shahrida, 278 tasi Karmana, 220 tasi Nurota, 184 tasi Qiziltepa, 103 tasi Xatirchi, 80 tasi Navbahor, 52 tasi Uchquduq, 31 tasi Tomdi, 26 tasi Konimex tumanlarida va 69 tasi Zarafshon shahrida joylashgan.

2018 yil 1 fevral holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni



Joriy yilning yanvar oyi davomida viloyatimizda 39 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 25,6 foizi Navoiy shahriga to'g'ri keladi.

**Navoiy viloyat statistika boshqarmasining
Sanoat statistikasi bo'limi**

Aloqa telefoni: (036) 233-33-29